

Solihning nasihati



10:00 / 25.04.2021 1579

Solih qavmiga nasihat qilib, ularni aql va hikmat ila Allohga da'vat qilishdan to'xtamadi. U: Ey birodarlarim! Sizlar abadul abad mana shu yerda qolamiz deb o'ylayapsizlarmi?! - Mangu muhtasham qasrlar ichida kayf-safo qilamiz degan o'ydamisizlar?! Sizlar bu bog'-rog'lar va anhorlarda doim bo'lamiz, deb o'ylaysizlarmi? Sizlar bu ekin va daraxtlar (mevasini) yeyishda bardavom bo'lasizlarmi? Sizlar tog'larni o'y solib yurmoqchimisizlar? Yo'q, Hech qachon, yo'q, hech qachon, sizlarning bu xomxayollaringiz hargiz amalga oshmas! Hech qachon o'ylaganlaringiz bo'lmaydi! Ey birodarlar! Axir ota-bobolaringiz qayoqqa ketdi?! Ota-bobolaringiz ham muhtasham qasrlar qurishgandi. Ularning ham bog'-rog'lari va buloqlari bor edi. Ekinzor va xurmozorlari bor edi. Otalaringizda xuddi sizlar kabi toshlardan qasrlar qurib yashardilar.

Lekin shuncha mol-mulklari ularga foyda bermadi. Ularni o'limdan saqlab qoldimi? Axir o'lim farishtasi otalaringiz jonini dorul baqoga olib ketmaganmidi?! Xuddi shunday sizlar ham bir kuni albatta o'lasizlar. So'ng Alloh taolo sizlarni tiriltirib, ne'matlarini nimalarga sarflaganingizdan so'roq qiladi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad